

4.11. “YOXTTEB” ni O‘zbekiston Respublikasi FVV ning me‘yor hujjatlarida ko‘zda tutilgan, me‘yorlardan kam bo‘lmagan miqdorda mebel‘ jixozlari, kerakli asbob uskunalar bilan ta‘minlash.

4.12. “YOXTTEB” xizmati xodimlariga “Xo‘jalik idorasi” jabhalarida yong‘inni oldini olish borasidagi masalalarni hal etish, shunga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqib, taqdim etish.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1 «Buyurtmachi» ishlar, xizmatlar haqqini o‘z vaqtida to‘lamaganda, O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustda qabul qilingan «Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonunining 24-moddasida ko‘rsatilgan ya‘ni, taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda javobgar bo‘ladi.

VI. Fors – major

(engib bo‘lmaydigan kuch holatlari)

6.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta‘sir etsa, tomonlar bunday javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga munosib ravishda uzaytiriladi.

Agarda yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda tomonlar ishlarni, xizmatlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

6.2. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidirlar.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi.

7.1. Shartnoma punktlarni bajarishda va bekor qilishda, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirishda paydo bo‘ladigan nizolar masalalarini tomonlararo hal etolmasa, ular qonun oldida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

VIII. Qo‘shimcha shartlar.

8.1. YOXTTEB sonidagi o‘zgarishlar, tomonlarning xay‘at aktining takliflari va O‘zbekiston Respublikasi FVV tomonidan tasdiqlangan me‘yorlar asosida amalga oshiriladi.

8.2. “Xo‘jalik idorasi” tomonidan “YOXTTEB” uchun olingan o‘t o‘chirish texnikasi, avtoulovlar, o‘t o‘chirish qurollari, madaniy ma‘rifiy anjomlar va jixozlar, “Xo‘jalik idorasi” ning mulki xisoblanib, uning balansida turadi.

“YOXTTEB” “Xo‘jalik idorasi” oldida o‘t o‘chirish texnikasi va o‘t o‘chirish anjomlaridan qonun bilan o‘rnatilgan tartibda foydalanishga va ularni saqlashga javobgar hisoblanadi.

8.3. “YOXTTEB” “Xo‘jalik idorasi” dan bepul foydalanish uchun olingan moddiy boyliklar uchun, “Xo‘jalik idorasi” oldida moddiy javobgar xisoblanadi.

8.4. “Xo‘jalik idorasi” boshliqlari “YOXTTEB” shaxsiy tarkibi tomonidan xizmatni o‘tashlarini tekshirishlari, tizim boshlig‘iga xizmatga taalluqli ko‘rsatmalar berishga va aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Toshkent shahar FVB rahbariyatiga murojaat etishga xaqlidir.

8.5. “YOXTTEB” shaxsiy tarkibi xizmatda foydalanishi uchun «Xo‘jalik idorasi» mablag‘i hisobiga olingan harbiy kiyimlar, xizmat jixozlari hamda tabel‘ xisobidagi boshqa mulk, “YOXTTEB” ning xususiy mulki xisoblanadi.

8.6. Yil davomida smetaga nisbatan tejalgan mablag‘larni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi smetadan tashqari boshqa zaruriy maqsadlarga (engil tezkor, avtobus, maxsus Yong‘in o‘chirish avtoulovlarini harid qilish va ularni ta‘mirlash,